

DAVLAT VA NODAVLAT OLIY TA'LIMNI BOSHQARISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Axmadjanov Firdavs Pazliddin o'g'li

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

13.00.07-Ta'limda menejment

Annotatsiya: Ushbu maqola davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari xorij tajribasini o'rganish, oliy ta'lim tizimida faoliyat jarayonining sifatini oshirishni tahlil etish, tashqi va ichki mehnat bozorida raqobatga bardosh beradigan mutaxassislarni tayyorlash va xorij tajribasini o'rgangan holda mehnat unimdorligini oshirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim muassasalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, xizmat ko'rsatish sohasi, iqtisodiy sektor, model.

Abstract: This article discusses the study of foreign experience of state and non-state higher education institutions, the analysis of improving the quality of the activity process in the higher education system, the preparation of specialists who can withstand competition in the external and internal labor markets, and the study of foreign experience to increase labor productivity.

Keywords: Higher education institutions, experience of developed countries, service sector, economic sector, model.

Аннотация: В данной статье рассматривается изучение зарубежного опыта государственных и негосударственных высших учебных заведений, анализ повышения качества процесса деятельности в системе высшего образования, подготовка специалистов, способных выдерживать конкуренцию на внешнем и внутреннем рынках труда, а также изучение зарубежного опыта повышения производительности труда.

Ключевые слова: Высшие учебные заведения, опыт развитых стран, сфера услуг, сектор экономики, модель.

KIRISH

Vatanimiz ta'limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o'quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta'lim to'la ma'noda yangicha tafakkur, sog'lom fikr demakdir. Hozirgi davrda ta'limning qadr-qimmat, obro va nufuziga teng darajada uning ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoyilik va ishbilarmonlik ham bo'lmog'i zarur. Ta'limdagi muvaffaqiyat, aksariyat dadil harakat qiluvchilar tarafida bo'ladi. Dadil

harakat, shijoat tufaylifdir. Shijoatni esa insonga, o'zbek milliy pedagogikasining mumtoz namoyondasi Abdulla Avloniy takidlaganlaridek maktab ilm- ma'rifat baxsh eta oladi. Qadimdan bizda bilim olish qadrlangan. Bilimdon kishilar esa el- yurt ardog'ida bo'lganlar. Shuning uchun ham bilim olish va olingan bilimni mamlakatimiz xizmati yo'lida xizmat qildirish oliy insoniylik burchimizdir. Bu vazifalarni muvafaqiyatli hal etishni muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalari o'rganishdir.

Xalqaro tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali ta'lim tarbiyada qotib qolgan, o'z dolzarbligini yo'qotb borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ega bo'lamiz.

Mamlakatimizda amalga oshirilib kelinayotgan keng ko'lamli islohatlarning asosiy maqsadi ham aynan shularga qaratilgan. Sohadagi barcha yo'tuq va kamchiliklarimiz sarhisob qilinib, ta'lim sohasi yangi pog'anaga ko'tarilishi borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan mamlakatni rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida va bir qancha farmon hamda qarorlarda mazkur soha tubdan takomillashtirilgan holda davom ettirilmoqda. Hozirgi vaqtda davlat va nodavlat oliy ta'lim faoliyatidan ilmiy-texnik va innovatsiyalar sohasida natija sifatida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lish qobiliyati talab qilinmoqda. Bu esa davlat va nodavlat oliy ta'lim tizimida faoliyat jarayonining sifatini oshirishni tahlil etish, iqtisodiy, moliyaviy va boshqaruv jarayoni muammolarini aniqlash, endogen va ekzogen omillarning ta'sirining o'zgarishi sharoitida muayyan maqsadlarga erishish qobiliyatini baholash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek: "...ta'lim-tarbiya bo'yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga etkazishimiz zarur. Shu maqsadda Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta'lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professoro'qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy etuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi taqozo etmoqda"[1].

Davlat va Nodavlat oliy ta'lim sifatini oshirishning samarali tizimini yaratish strategik ahamiyatga ega ustuvor vazifa bo'lib, oliy ta'lim siyosatining barcha sub'ektlarini (milliy, hududiy, institutsional, xalqaro) faol o'zaro munosabatda faoliyat yuritishini zarurat etadi. Jahonda amal qilayotgan ta'lim sifatini ta'minlovchi turli milliy tizimlar bir-biridan ko'pgina jihatlarini bo'yicha farqlanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlarda oliy ta'lim tizimi quyidagi

mezonlarga ko'ra guruhlanadi: oliy o'quv yurtlari soni, oliy ta'limni boshqarish tarkibi, oliy o'quv yurtlarini guruhlanishi, tashkiliy avtonomiya darajasi.

Davlat va nodavlat oliy ta'lim tizimida sifatni oshirishning **“Amerika modeli”** OTMlari va ta'lim dasturlarini akkreditatsiyalashga asoslangan hamda **“Fransuz”** va **“Ingliz”** modellarining samarali uyg'unligidan iborat. Hozirgi vaqtda AQSH universitetlarida o'z-o'zini baholash tizimi rivojlangan bo'lib, amerika oliy ta'limi ustun darajada OTMlar tomonidan nazorat qilinadi. Xorijlik talabalar oqimini jalb qilish orqali milliy oliy ta'lim tizimi nafaqat jamiyatni baynalmilallashtirish, balki jozibador kapitallarni ham kiritmoqda. Ayniqsa, o'z mamlakati va o'qigan mamlakat madaniyati bilan yaqindan tanish bo'lgan milliy universitetlarning xorijlik bitiruvchilar uchun iqtisodiy nuqtai nazardan fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi innovatsion iqtisodiyotda rivojlanishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Hozirgi kunda jahondagi, xususan, MDH davlatlarida OTMlar jahon bilimlari iqtisodiyoti talablariga javob berish zarurati bilan bog'liq holda universitetlari funksional va tarkibiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda.

Davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash sifatini ta'minlash muammosi har doim eng muhim dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan ishlab chiqarish korxonalaridagi mulkchilikka bo'lgan munosabat va talablarning o'zgarishi hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash pedagoglar, talabalar va ota-onalar, shuningdek, jamiyatning hamma tizimlariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Shuning uchun oldimizda turgan asosiy vazifalaridan biri, bu ta'lim sifatini ta'minlash va uni mazmunini boyitish va zamonaviy innovacion va pedagogik texnologiyalarini tadbiq etish, jahon tajribasini qo'llashda uning samarasini oshirish va ta'lim sifatini ta'minlash bilan bog'liqligini doim ustivor yo'nalishligini bilishimiz kerak.

Demak, bugungi kunda sifatni ta'minlashning yo'nalishlaridan biri davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarida nafaqat mamlakat ichkarisida, balki xorijiy mamlakatlar bilan shakllanishi albatta eng taraqqiy etgan ta'lim usullarni tadbiq etishni taqozo etadi. Buning asosida video konferenciya, masofaviy ta'lim turlarini amalga oshirish mumkin. Onlayn rejimida o'tkaziladigan bunday faol muloqot jarayonida, ikki tomondagi olimlar o'rtasida dolzarb muammolar bo'yicha baxs-munozaralar, ularning yechimlari, ma'lum bilim sohalari bo'yicha tajriba almashish kabi vazifalar amalga oshirilishi lozim. Etirof etish kerakki, rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayondir. Shu tufayli yurtimizda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag'lar miqdori yildan-yilga oshib bormoqda. Shu bilan birga respublikamizda ta'lim tizimida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish va ularni natijaviyligini ta'minlash bu borada ta'lim tizimi sifatini nazorat qilishning zamonaviy usullarini qo'llash zaruratini keltirib chiqaradi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan fikr qiladigan bo'lsak, O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha xorijning ilg'or tajribalaridan foydalanish ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni jadallashuviga zamin yaratadi. Xususan, xorijiy mamlakatlarda OTMlarning raqobatbardoshligini ta'minlash holatini tahlil qilgan holda, respublikamiz ta'lim xizmatlari bozorini kelajakda samarali rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur: davlat tomonidan oliy o'quv yurtiga nisbatan paternalizm siyosatini amalga oshirish, oliy o'quv yurtlarining akademik va moliyaviy mustaqilligini ta'minlash; ta'lim tizimida nodavlat mulkning ulushini oshirish; oliy ta'lim sifatini baholashning qulay bo'lgan mezonlaridan foydalanish; tashqi va ichki mehnat bozorida raqobatga bardosh bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash; universitetda mutaxassislar tayyorlash uchun sifat menejmenti tizimining mavjudligi; mehnat bozorini to'liq qondirish uchun ta'lim dasturlarining mobilligini ta'minlash; kompetensiyalar va talab etilgan ko'nikmalarni fuqarolar va ishchilar olishlari uchun volontyorlikni rivojlantirish hamda hamjamiyatning yangi sektoriga ko'rsatiladigan xizmatlarning ko'lamini va harakatlanishini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq.-T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – B. 13-14.
2. Vaxabov A.V., Raxmonov N.R. Oliy ta'lim sifatini oshirishning xorij tajribasidan o'zbekiston oliy ta'lim tizimini isloh etishda foydalanish imkoniyatlari "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. № 4, avgust, 2020 yil.
3. Inson taraqqiyoti. Darslik. I.f.d., professor Q.X.Abduraxmanov tahriri ostida. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013. – 476 bet.
4. Pardayev M.Q. va boshqalar. Ta'lim xizmatlari va ularning samaradorligini oshirish masalalari. Monografiya. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020. – 200 b
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi - Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarida faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risidagi PQ-3775-sonli qarori.
5. Muxtorov A., Sultonov T., Mustafakulov Sh.I. Ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar Iqtisodiyot va innovacion texnologiyalar. 2012. 4. 9 b.